Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-oktabrdagi 679-son qaroriga
54-ILOVA

**Fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik sertifikati**
**PASPORTI**

| | | |
|---|---|---|
| 1. | **Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning nomi:** | Fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik sertifikati |
| 2. | **Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar):** | Fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq fuqaro havo kemasidan foydalanish |
| 3. | **Ariza beruvchilar toifasi:** | Yuridik yoki jismoniy shaxslar |
| 4. | **Ruxsat etish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organ:** | Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (“Oʻzaviatsiya” agentligi) |
| 5. | **Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar:** | **1. Uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikatni olish uchun:**<br>**a)** ariza;<br>arizada quyidagilar aks ettiriladi:<br>1) (talabgorning) yuridik shaxsning toʻliq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;<br>2) havo kemasi:<br>Oʻzbekiston Respublikasi hududi joylashgan; ƒ<br>Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan; ƒ<br>3) arizani berish sababi;<br>4) havo kemasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar:<br>havo kemasining turi;<br>davlat tanish va roʻyxat belgilari;<br>zavodda berilgan raqami;<br>ishlab chiqarilgan joyi va sanasi;<br>dvigatellar / havo vintlari turi;<br>havo kemasi toifasi va/yoki qoʻllanilishi;<br>taʼmirlashlarning soni, joyi va oxirgi taʼmirlash sanasi;<br>havo kemasi bazirovka (arenda) joyi;<br>havo kemasi vaznini oxirgi oʻlchash sanasi va joyi;<br>boʻsh havo kemasi vazni, kg Sentrovkasi (CAX), %;<br>jihozlangan havo kemasining boʻsh vazni (Basic Empty Weight), kg Sentrovkasi (CAX), %;<br>maksimal uchish vazni, kg;<br>tayinlangan resurs va xizmat qilish muddati uzaytirishlarini hisobga olgan holda (soat/sikl/sana);<br>taʼmirlararo resursi va xizmat qilish muddati uzaytirishlarini hisobga olgan holda (soat/sikli/sana);<br>ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan eʼtiboran havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);<br>oxirgi taʼmirdan keyin havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);<br>5) dvigatellar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar: |

| Dvigatelning tartib raqami | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Zavod raqami | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Ishlab chiqarilgan sanasi | | | | |
| Ta’mirlashlarning soni, oxirgi ta’mirlash sanasi va joyi | | | | |
| Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ta’mirlararo resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan e’tiboran ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |
| Oxirgi ta’mirdan keyin ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |

6) havo vintlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

| Havo vintlarining tartib raqami | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Zavod raqami | | | | |
| Ishlab chiqarilgan sanasi | | | | |
| Ta’mirlashlarning soni, oxirgi ta’mirlash sanasi va joyi | | | | |
| Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ta’mirlararo resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan e’tiboran ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |
| Oxirgi ta’mirdan keyin ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |

uchishga yaroqlilik bo‘yicha barcha bajarilishi shart bo‘lgan byulletenlar va ko‘rsatmalar, ariza berish kuniga qadar bajarilgan, havo kemasi ishlab chiqaruvchining talablariga muvofiq jihozlangan, reglamentda ko‘rsatilgan texnik xizmat ko‘rsatish ishlari bajarilgan; *f*

havo kemasi ishlaydigan holatda va foydalanish uchun yaroqlidir; ↓

7) talabgor to‘g‘risidagi ma’lumot:

***yuridik shaxslar uchun:***

tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatgan holda to‘liq nomi;

joylashgan joyi (pochta manzili);

telefon raqami / e-mail;

***jismoniy shaxslar uchun:***

familiyasi, ismi, otasining ismi;

fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari;

yashash joyi manzili;

telefon raqami / e-mail;

**b)** havo kemasida uning uchishga yaroqliligini aniqlash uchun nazorat-sinov parvozlari (nazorat uchishlari) bajarilganligi to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, dalolatnoma

| | | |
|---|---|---|
| | | va boshqalar) nusxasi, ushbu parvoz amalga oshirilgan bo‘lsa;<br>**v)** ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangan havo kemasini tashqi bo‘yash individual/namunaviy sxemasi;<br>**g)** havo kemasining vazni va sentrovkasini aniqlash to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, hisobot, dalolatnoma va boshqalar) nusxasi;<br>**d)** ariza beruvchi tomonidan o‘tkazilgan fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligiga doir tekshiruv to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, hisobot, dalolatnoma va boshqalar) nusxasi;<br>**e)** havo kemasi komponentlarining resursini hisobga olish, dvigatellari, uchishga yaroqlilik bo‘yicha direktivalar, servis byulletenlari va texnik xizmat ko‘rsatish dasturi ishlari bo‘yicha hujjatlar (reyestrlar, qaydnomalar, hisobga olish kartochkalari va boshqalar) nusxalari;<br>**j)** ushbu havo kemasiga tegishli bo‘lgan “O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan tasdiqlangan texnik xizmat ko‘rsatish dasturi va minimal jihozlar ro‘yxati;<br>**z)** havo kemasi formulyari (maksimal uchish vazni 5000 kg dan kam bo‘lgan havo kemalari uchun);<br>**i)** resurs va/yoki xizmat muddatini uzaytirish bo‘yicha ishlar bajarilgan havo kemasiga uchishga yaroqlilik bo‘yicha standart sertifikat berilgan bo‘lsa, quyidagi hujjatlar nusxalari:<br>aniq bir namunaviy havo kemasi uchun resurs va/yoki xizmat muddatini belgilash to‘g‘risidagi havo kemasi loyihachisining (ishlab chiqaruvchisining) qarorlari (xulosalari va boshqalar);<br>resurs va/yoki xizmat muddatini uzaytirish mumkinligini aniqlash maqsadida havo kemasining texnik holatini tadqiq etish bo‘yicha havo kemasi loyihalovchisining (ishlab chiqaruvchisining) dasturi;<br>havo kemasining texnik holatini tadqiq etish bo‘yicha dastur natijalariga ko‘ra havo kemasining texnik holatini baholash to‘g‘risidagi dalolatnoma;<br>havo kemasining texnik holatini baholash to‘g‘risidagi dalolatnomada ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risidagi dalolatnoma.<br>**2. Uchishga yaroqlilik bo‘yicha maxsus sertifikatni olish uchun**<br>**a)** ariza;<br>arizada quyidagilar aks ettiriladi:<br>1) (talabgorning) yuridik shaxsning to‘liq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;<br>2) Havo kemasi:<br>O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan; ↓<br>O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan; ƒ<br>3) arizani berish sababi;<br>4) havo kemasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar:<br>havo kemasining turi; |

| | | |
|---|---|---|
| | | davlat tanish va ro‘yxat belgilari;<br>zavodda berilgan raqami;<br>ekspluatatsiyasi boshlangan vaqtdan e’tiboran havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);<br>oxirgi ta’mirdan keyin havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);<br>oxirgi operativ/davriy texnik xizmat ko‘rsatish (sana, texnik xizmat ko‘rsatish uchun karta/naryadlarining raqami);<br>parvozning maqsadi va mo‘ljallangan yo‘nalishi;<br>maxsus parvozni amalga oshirish uchun ekipaj tarkibi;<br>havo kemasining konstruksiyasi va xarakteristikalari uning konstruksiyasi turiga nomuvofiqligi haqida batafsil tavsif;<br>parvozni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ekspluatatsion cheklovlar va maxsus jihozlar ro‘yxati;<br>parvoz xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tegishli tekshiruvlar yoki sinovlarning natijalari;<br>parvoz uchun aviatsiya yoqilg‘isining hisoblangan miqdori va havo kemasining aslida uchib chiqish vazni;<br>havo kemasi belgilangan maqsadlar va cheklovlar bilan xavfsiz parvozni ta’minlashga qodirligi haqida ma’lumot;<br>**b)** havo kemasi joylashgan joyda bartaraf etilishi mumkin bo‘lmagan, ushbu turdagi havo kemasining ekspluatatsiya hujjatlariga ko‘ra ruxsat berish va cheklovlar doirasidan chetga chiqqan zarar va/yoki nosozliklar havo kemasining konstruksiyasi yoki uning komponentlarida mavjud bo‘lgan hollarda parvozni amalga oshirish imkoniyati to‘g‘risida fuqaro havo kemasining ishlab chiqaruvchisi (loyihalovchi) bilan kelishuv;<br>**v)** ariza beruvchining uchuvchi-texnik komissiyasi tomonidan tayyorlangan, xavfsiz parvozni amalga oshirish imkoniyati to‘g‘risidagi xulosa qayd etilgan fuqaro havo kemasining texnik holatini baholash dalolatnomasi.<br>**3. Uchishga yaroqlilik bo‘yicha eksport sertifikatini olish uchun**<br>**a)** ariza;<br>arizada quyidagilar aks ettiriladi:<br>1) (talabgorning) yuridik shaxsning to‘liq nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;<br>2) arizani berish sababi;<br>3) havo kemasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar:<br>havo kemasining turi;<br>davlat tanish va ro‘yxat belgilari;<br>zavodda berilgan raqami;<br>ishlab chiqarilgan joyi va sanasi;<br>dvigatellar / havo vintlari turi;<br>havo kemasi toifasi va/yoki qo‘llanilishi;<br>ta’mirlashlarning soni, joyi va oxirgi ta’mirlash sanasi;<br>havo kemasi bazirovka joyi;<br>havo kemasi vaznining oxirgi o‘lchash sanasi va joyi;<br>bo‘sh havo kemasi vazni, kg Sentrovkasi (CAX), %; |

jihozlangan havo kemasining bo‘sh vazni (Basic Empty Weight), kg Sentrovkasi (CAX), %;

maksimal uchish vazni, kg;

tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati uzaytirishlarini hisobga olgan holda (soat/sikl/sana);

ta’mirlararo resursi va xizmat qilish muddati uzaytirishlarini hisobga olgan holda (soat/sikli/sana);

ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan e’tiboran havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);

oxirgi ta’mirdan keyin havo kemasining ishlagan vaqti (soat/sikli);

4) dvigatellar to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

| Dvigatelning tartib raqami | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Zavod raqami | | | | |
| Ishlab chiqarilgan sanasi | | | | |
| Ta’mirlashlarning soni, oxirgi ta’mirlash sanasi va joyi | | | | |
| Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ta’mirlararo resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan e’tiboran ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |
| Oxirgi ta’mirdan keyin ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |

5) havo vintlari to‘g‘risida ma’lumotlar:

| Havo vintlarining tartib raqami | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| Zavod raqami | | | | |
| Ishlab chiqarilgan sanasi | | | | |
| Ta’mirlashlarning soni, oxirgi ta’mirlash sanasi va joyi | | | | |
| Tayinlangan resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ta’mirlararo resursi va xizmat qilish muddati (uzaytirishlarni hisobga olgan holda) | | | | |
| Ekspluatatsiya boshlangan vaqtdan e’tiboran ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |
| Oxirgi ta’mirdan keyin ishlagan vaqti (soat/sikli) | | | | |

uchishga yaroqlilik bo‘yicha barcha bajarilishi shart bo‘lgan byulletenlar va ko‘rsatmalar, ariza berish kuniga qadar bajarilgan, havo kemasi komplektlab qo‘yilgan, reglamentda ko‘rsatilgan texnik xizmat ko‘rsatish ishlari bajarilgan; *f*

havo kemasi ishlaydigan holatda va baza joyigacha uchish uchun yaroqlidir; ↓

6) talabgor to‘g‘risidagi ma’lumot:

| | | |
|---|---|---|
| | | ***yuridik shaxslar uchun:*** <br>tashkilotning tashkiliy-huquqiy shaklini ko‘rsatgan holda to‘liq nomi; <br>joylashgan joyi (pochta manzili); <br>telefon raqami / e-mail; <br>***jismoniy shaxslar uchun:*** <br>familiyasi, ismi, otasining ismi; <br>fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari; <br>yashash joyi manzili; <br>telefon raqami / e-mail; <br>**b)** vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan havo kemasini qabul qilish-topshirish dalolatnomasining nusxasi; <br>**v)** yangi ro‘yxatga olish davlatining Aviatsiya ma’muriyatidan fuqaro havo kemasi ushbu davlatda ro‘yxatga olinishi to‘g‘risidagi xabarnomaning nusxasi; <br>**g)** havo kemasida uning uchishga yaroqliligini aniqlash uchun nazorat-sinov parvozlari (nazorat uchishlari) bajarilganligi to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, dalolatnoma va hokazo) nusxasi, ushbu parvoz amalga oshirilgan bo‘lsa; <br>**d)** havo kemasining vazni va sentrovkasini aniqlash to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, hisobot, dalolatnoma va hokazo) nusxasi; <br>**e)** ariza beruvchi tomonidan o‘tkazilgan fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligiga doir tekshiruv to‘g‘risidagi hujjat (bayonnoma, hisobot, dalolatnoma va hokazo) nusxasi; <br>**j)** havo kemasi komponentlarining resursini hisobga olish, dvigatellari, uchishga yaroqlilik bo‘yicha direktivalar, servis byulletenlari va texnik xizmat ko‘rsatish dasturi ishlari bo‘yicha hujjatlar (reyestrlar, qaydnomalar, hisobga olish kartochkalari va boshqalar) nusxalari; <br>**z)** havo kemasi formulyari (maksimal uchish vazni 5 000 kg dan kam bo‘lgan havo kemalari uchun); <br>**i)** resurs va/yoki xizmat muddatini uzaytirish bo‘yicha ishlar bajarilgan havo kemasiga uchishga yaroqlilik bo‘yicha standart sertifikat berilgan bo‘lsa, quyidagi hujjatlar nusxalari: <br>aniq bir namunaviy havo kemasi uchun resurs va/yoki xizmat muddatini belgilash to‘g‘risidagi havo kemasi loyihachisining (ishlab chiqaruvchisining) qarorlari (xulosalari va boshqalar); <br>resurs va/yoki xizmat muddatini uzaytirish mumkinligini aniqlash maqsadida havo kemasining texnik holatini tadqiq etish bo‘yicha havo kemasi loyihalovchisining (ishlab chiqaruvchisining) dasturi; <br>havo kemasining texnik holatini tadqiq etish bo‘yicha dastur natijalariga ko‘ra havo kemasining texnik holatini baholash to‘g‘risida dalolatnoma; <br>havo kemasining texnik holatini baholash to‘g‘risidagi dalolatnomada ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida dalolatnoma; |

<table>
<tr><td></td><td></td><td>k) ilgari berilgan uchishga yaroqlilik sertifikatining asl nusxasi.</td></tr>
<tr><td>6.</td><td>Arizani ko‘rib chiqish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:</td><td>
<table>
<tr><th>Havo kemasi</th><th>Yig‘im</th></tr>
<tr><td>Maksimal uchish massasi 15 000 kg dan yuqori bo‘lmagan havo kemalari</td><td>Bazaviy hisoblash miqdorining 153,7 baravari</td></tr>
<tr><td>Maksimal uchish massasi 15 000 kg va undan yuqori bo‘lgan havo kemalari</td><td>Bazaviy hisoblash miqdorining 278,2 baravari</td></tr>
</table>
Yig‘imlar summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:<br>10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasiga;<br>11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘iga;<br>qolgan mablag‘larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag‘iga, 40 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.</td></tr>
<tr><td>7.</td><td>Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun undiriladigan yig‘im:</td><td>Bazaviy hisoblash miqdorining 7,8 baravari.<br>Yig‘im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:<br>10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasiga;<br>11,25 foizi — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun, shuningdek, 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘iga;<br>qolgan mablag‘larning 60 foizi — vakolatli organning hisobvarag‘iga, 40 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi.</td></tr>
<tr><td>8.</td><td>Arizani ko‘rib chiqish muddati:</td><td>10 ish kuni.<br>Fuqaro havo kemasini xorijiy davlat hududida tekshirish amalga oshirilgan hollarda, muddat 30 ish kunigacha uzaytirilishi mumkin.</td></tr>
<tr><td>9.</td><td>Ruxsat etishga oid talab va shartlar:</td><td>a) fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligi saqlanishini ta’minlash;*<br>b) havo kemasi quyidagilarga ega bo‘lishi kerak:<br>havo kemasida ro‘yxatga olish va davlat belgilari aks ettirilishi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tasvirini ifodalovchi belgi tushirilgan holda tashqi bo‘yalishi;*</td></tr>
</table>

| | | |
|---|---|---|
| | | havo kemasining asosiy kirish yoʻlagida koʻrinadigan joyga oʻrnatilgan, havo kemasining turi, havo kemasining roʻyxatga olish va davlat tanish belgilari koʻrsatilgan tanituvchi tablo;*<br>v) belgilangan resurslar va xizmat muddati doirasida fuqaro havo kemasidan foydalanish;*<br>g) belgilangan muddatlarda uchishga yaroqlilik direktivalari, majburiy byulletenlar va nazorat tariqasida tekshiruvlarni bajarish;*<br>d) Oʻzbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalariga rioya qilish.* |
| **10.** | **Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berishda kelishiladigan organlar:** | Mavjud emas |
| **11.** | **Ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatning amal qilish muddati:** | 1. Uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikat bir kalendar yildan koʻp boʻlmagan muddatga beriladi.<br>2. Uchishga yaroqlilik boʻyicha maxsus sertifikat oʻn besh kalendar kundan koʻp boʻlmagan muddatga beriladi.<br>3. Uchishga yaroqlilik boʻyicha eksport sertifikati bir kalendar oydan koʻp boʻlmagan muddatga beriladi. |
| **12.** | **Izoh:** | 1. Uchishga yaroqlilik sertifikati Oʻzbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida ekspluatatsiya qilishga ruxsat berish uchun fuqaro havo kemasi uchishga yaroqliligi normalariga muvofiqligini tasdiqlaydi.<br>2. Oʻzbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida uchishga yaroqlilik sertifikatining uch turi qoʻllaniladi:<br>uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikat;<br>uchishga yaroqlilik boʻyicha maxsus sertifikat;<br>uchishga yaroqlilik boʻyicha eksport sertifikati.<br>3. Uchishga yaroqlilik sertifikatiga sertifikatning aniq turini aniqlaydigan ikkita harfdan iborat raqam (CA — uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikat, SC — uchishga yaroqlilik boʻyicha maxsus sertifikat, YEC — uchishga yaroqlilik boʻyicha eksport sertifikati) va tartib raqami, ortib boruvchi oraliq raqam beriladi.<br>4. Quyidagi hollarda uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikat beriladi:<br>fuqaro havo kemasi Oʻzbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalarining davlat reyestriga kiritilgandan (uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikatini dastlabki berish), radiojihozlar sertifikati va shovqinlar boʻyicha sertifikat olgandan keyin;<br>avval berilgan uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikatning amal qilish muddati tugaganda;<br>fuqaro havo kemasining toifasi va/yoki qoʻllanilishi oʻzgarganda.<br>Uchishga yaroqlilik boʻyicha standart sertifikat raqami ekspluatatsiyada boʻlgan butun davr mobaynida aniq bir fuqaro havo kemasida saqlanib qoladi.<br>5. Fuqaro havo kemasi va/yoki parvozlarni amalga oshirish sharoitlari uchishga yaroqlilik normalari talablariga |

| | | |
|---|---|---|
| | | javob bermasa, quyidagi hollarda uchishga yaroqlilik bo‘yicha maxsus sertifikat beriladi:<br>ta’mirlash, modifikatsiyalash yoki texnik xizmat ko‘rsatish lozim bo‘lgan joyga, shuningdek, saqlab turish joyiga havo kemasi uchib borishi uchun;<br>havo kemasi joylashgan joyda bartaraf etilishi mumkin bo‘lmagan, ushbu turdagi havo kemasining ekspluatatsiya hujjatlariga ko‘ra ruxsat berish va cheklovlar doirasidan chetga chiqqan zarar va/yoki nosozliklar havo kemasining konstruksiyasi yoki uning komponentlarida mavjud bo‘lsa;<br>xavf solishi mumkin bo‘lgan hududdan yoki fors-major holati yuzaga kelganda fuqaro havo kemasini evakuatsiya qilish uchun;<br>“O‘zaviatsiya” agentligi qaroriga ko‘ra boshqa har qanday holatlarda.<br>Uchishga yaroqlilik bo‘yicha maxsus sertifikat faqat ma’lum bir parvozni amalga oshirish uchun haqiqiy hisoblanadi va fuqaro havo kemasi sertifikatda ko‘rsatilgan ekspluatatsiya cheklovlarini hisobga olgan holda, belgilangan yo‘nalish bo‘ylab xavfsiz parvozni amalga oshirishga qodirligini tasdiqlaydi.<br>6. Uchishga yaroqlilik bo‘yicha eksport sertifikati, fuqaro havo kemasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalarining davlat reyestridan chiqarilib, uni xorijiy davlatning aviatsiya ma’muriyati yurisdiksiyasiga o‘tkazish chog‘ida beriladi.<br>7. Uchishga yaroqlilik standart sertifikatini berish uchun fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligiga doir tekshiruv o‘tkaziladi. Tekshiruv dasturi “O‘zaviatsiya” agentligi tomonidan belgilanadi. Maksimal uchish vazni 5 700 kg dan kam bo‘lgan fuqaro havo kemasida “O‘zaviatsiya” agentligi mutaxassisi tomonidan fuqaro havo kemasining uchishga yaroqliligiga doir tekshiruv o‘tkazilmasligiga yo‘l qo‘yiladi.<br>8. Vakolatli organ arizani ko‘rib chiqish muddati davomida o‘rganishlarni o‘tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo‘lda bo‘lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug‘urta polisini sotib olish xarajatlari) talabgor (ariza beruvchi) tomonidan amalga oshiriladi.<br>9. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlari talablariga va tavsiya qilingan amaliyotga muvofiq “O‘zaviatsiya” agentligi talabgorga ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig‘im to‘langan sanadan e’tiboran bir ish kunidan kechiktirmay uchishga yaroqlilik sertifikatining asl nusxasini beradi.<br>10. Xalqaro parvozlarni amalga oshiruvchi fuqaro havo kemasi uchun uchishga yaroqlilik sertifikati matni ingliz tilida bo‘lishi lozim.<br>11. Parvozlarni amalga oshirish vaqtida uchishga yaroqlilik sertifikati havo kemasida bo‘lishi lozim. |

| | | |
|---|---|---|
| | | Amaldagi uchishga yaroqlilik sertifikati bo‘lmagan hollarda havo kemasida parvozlarni amalga oshirish taqiqlanadi.<br>12. Fuqaro havo kemasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalarining davlat reyestridan chiqarilgan taqdirda, uchishga yaroqlilik sertifikati avtomatik ravishda bekor qilinadi.<br>13. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan fuqaro havo kemasiga uchishga yaroqlilik sertifikati quyidagi hollarda berilishi mumkin:<br>a) O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida fuqaro havo kemasini ekspluatatsiya qilish;<br>b) havo kemasini sotib olish (ijaraga olish).<br>14. Uchishga yaroqlilik sertifikatini berish tartib-taomillari talabgorning yozma murojaati asosida “O‘zaviatsiya” agentligi direktorining buyrug‘i bilan vakolat berilgan mutaxassis tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshiriladi.<br>15. O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik sertifikatini berish tartib-taomillari bajarilgan taqdirda, talabgor oldindan taqdim qilmagan ushbu pasportning 5-bandiga muvofiq uchishga yaroqlilik sertifikatini berish uchun arizaga ilova qilinadigan (talabgor tomonidan havo kemani qabul qilganidan keyin rasmiylashtiriladigan) hujjatlar, tekshiruv o‘tkaziladigan joyda talabgorning vakolatli mutaxassislari tomonidan taqdim etilishi mumkin.<br>16. Talabgor ekspluatatsiya qiladigan fuqaro havo kemalariga xorijiy davlat Aviatsiya ma’muriyati tomonidan berilgan uchishga yaroqlilik sertifikatini, bunday sertifikatni berish talablari Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (IKAO) standartlariga muvofiq bo‘lishi sharti bilan “O‘zaviatsiya” agentligi haqiqiy deb tan oladi.<br>17. Fuqaro havo kemasini ishlab chiqaruvchi davlat yoki havo kemasining turiga doir sertifikatni bergan vakolatli organ tomonidan belgilangan uchishga yaroqlilik normalarini “O‘zaviatsiya” agentligi tan oladi.<br>18. Vakolatli organ arizani ko‘rib chiqish muddati davomida o‘rganishlarni o‘tkazish uchun xarajatlar (xizmat safari va yo‘lda bo‘lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar, mehmonxonalarda yashash xarajatlari, transport xarajatlari, kirish vizasini rasmiylashtirish va sug‘urta polisini sotib olish xarajatlari) haqiqiy xarajatlar summasi bo‘yicha talabgor (ariza beruvchi) tomonidan yozma shartnomaga ko‘ra qoplanadi.<br>**Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.* |